

TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTI: TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA O‘ZBEKISTONNING STRATEGIK ISHTIROKI

Terkashev Anvar Zafarovich

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

anvartirkashev28@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20022227>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Turkiy Davlatlar Tashkilotining shakllanishi va rivojlanishining tarixiy bosqichlari kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda turkiy integratsiya g‘oyasining ildizlari, 1990-yillardan boshlab turkiy davlatlar o‘rtasida institutsional hamkorlikning vujudga kelishi hamda Naxchivon kelishuvi asosida tashkilotning huquqiy-siyosiy asoslari yoritiladi. Shuningdek, Turkiy Davlatlar Tashkilotining siyosiy, iqtisodiy, transport-logistika, madaniy-gumanitar va xavfsizlik sohalaridagi faoliyati zamonaviy xalqaro munosabatlar kontekstida tahlil qilinadi. Maqolada O‘zbekistonning Turkiy Davlatlar Tashkilotidagi strategik ishtiroki, mamlakatning ochiq va pragmatik tashqi siyosati doirasida TDT doirasidagi tashabbuslari, mintaqaviy barqarorlik va iqtisodiy integratsiyaga qo‘shayotgan hissasi alohida ilmiy asosda o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari turkiy hamkorlikning istiqbollari va O‘zbekistonning ushbu jarayondagi o‘rni tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Turkiy Davlatlar Tashkiloti, turkiy integratsiya, mintaqaviy hamkorlik, O‘zbekiston tashqi siyosati, strategik sheriklik, xalqaro tashkilotlar, Markaziy Osiyo.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the historical stages of the formation and development of the Organization of Turkic States (OTS). The study examines the roots of the idea of Turkic integration, the emergence of institutional cooperation among Turkic states since the 1990s, and the legal and political foundations of the organization based on the Nakhchivan Agreement. In addition, the activities of the OTS in the political, economic, transport and logistics, cultural and humanitarian, and security spheres are analyzed in the context of contemporary international relations. The article also explores Uzbekistan’s strategic participation in the Organization of Turkic States, focusing on the country’s initiatives within the OTS framework as part of its open and pragmatic foreign policy, as well as its contribution to regional stability and economic integration. The research findings demonstrate that the prospects for Turkic cooperation are expanding, and that Uzbekistan’s role in this process is steadily increasing.

Keywords: Organization of Turkic States, Turkic integration, regional cooperation, Uzbekistan’s foreign policy, strategic partnership, international organizations, Central Asia.

Kirish. 1991-yilning oxirlariga qadar jahonda turkiy tilda so‘zlashuvchi yagona mustaqil davlat Turkiya bo‘lgan, boshqa beshta davlat esa sobiq Ittifoq tarkibidagi respublikalar edi. Shuning uchun ham mazkur respublikalar bilan birgalikda turkiy tilli davlatlar tashkilotini tuzish to‘g‘risida fikr yuritish ham mumkin bo‘lmaganligi barchaga ayon. 1991-yilning oxirlariga kelib Markaziy Osiyo davlatlari va Ozarbayjon mustaqillikka erishib, o‘zining suverenitetini e‘lon qildi hamda xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyektiga aylandi. Shundan so‘ng 1992-yil 30-oktyabrda Turkiyaning tashabbusi bilan birinchi “Turkiy tilli davlatlar sammiti” Anqara shahrida o‘tkazildi. Unda Ozarbayjon, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, O‘zbekiston rahbarlari ishtirok etishdi. 1993-yil 12-iyul kuni Olmaota shahrida Xalqaro turkiy madaniyat tashkilotini tuzish haqidagi bitim imzolandi.

Hozirgi kunda Turkiy davlatlar tashkiloti deb nomlanuvchi xalqaro tuzilma turkiy tilli xalqlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash maqsadida 2009-yil 3-oktabrda imzolangan “Naxchivan shartnomasi” asosida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi nomi bilan Ozarbayjon, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkiya hamkorligida tashkil etilgan edi. Vengriya mazkur tashkilotga 2018-yilda kuzatuvchi maqomi bilan qo'shildi. 2018-yilning 30-aprelida O'zbekiston ham bu kengashga a'zo bo'lish istagini bildirdi va 2019-yil 14-sentabrda tashkilotning to'laqonli a'zosiga aylandi. 2021-yil 12-noyabrda Istanbulda bo'lib o'tgan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining VIII Istanbul sammitida tashkilot nomi Turkiy davlatlari tashkiloti deb o'zgartirildi va Turkmaniston ham tashkilotda kuzatuvchi davlat maqomiga ega bo'ldi. Tashkilot Birlashgan Millatlar Tashkiloti nizomi va xalqaro huquqning suveren tenglik, hududiy yaxlitlik, davlatlararo xalqaro e'tirof etilgan chegaralarning daxlsizligi, tinchlik va xavfsizlikni saqlash, shuningdek, yaxshi qo'shnichilik va do'stona munosabatlarni rivojlantirish kabi umume'tirof etilgan tamoyillariga sodiqdir. Tashkilot tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, keng qamrovli hamkorlikni ilgari surish va a'zo davlatlar o'rtasida umumiy taraqqiyot imkoniyatlarini ochib berishga intiladi. Garchi u ma'lum guruh davlatlarni birlashtirsa-da, tashkilot cheklovchi yondashuvga ega emas. Aksincha, Turk tilli mamlakatlar o'rtasida yanada chuqurroq aloqalar va birdamlikni mustahkamlash orqali Yevroosiyo qit'asida, ayniqsa Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalarida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi yangi mintaqaviy vosita bo'lishni maqsad qiladi.

Asosiy qism. Turk Davlatlari Tashkiloti umumiy tarix, umumiy til, umumiy o'zlik va umumiy madaniyat kabi to'rt asosiy ustunga qurilgan bo'lsa-da, u o'z faoliyatini faqat shu umumiyliklar bilan cheklamaydi. Aksincha, iqtisodiyot, fan, ta'lim, transport, bojxona, turizm va boshqa ko'plab sohalarida mavjud ikki tomonlama hamkorlikni ko'p tomonlama shaklga aylantirish orqali mintaqa manfaatlari yo'lida harakat qiladi. Shu bilan birga, Tashkilot o'z faoliyatini faqat a'zo davlatlar doirasida cheklamaydi, balki mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida qo'shni davlatlar bilan ayniqsa transport, bojxona va turizm sohalarida ixtiyoriy ravishda hamkorlik qiladi. Tashkilotning asosiy organlari — Davlat rahbarlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Oqsoqollar kengashi, Katta amaldorlar qo'mitasi va Kotibiyatdan iborat¹. Tashkilot faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi aloqador va tegishli tashkilotlarga Turk tilli davlatlar parlament assambleyas, Xalqaro Turk madaniyati tashkiloti, Xalqaro Turk akademiyasi, Turk madaniyati va merosi jamg'armasi, Turk ishbilarmonlar kengashi, Turk universitetlar ittifoqi va Turk savdo-sanoat palatasi kiradi. 2011 yildan beri Tashkilot har yili o'z sammitlarini ma'lum mavzular ostida o'tkazadi. Bu sammitlarda a'zo davlatlar rahbarlari o'tgan davrni baholaydilar va kelgusi yil uchun maqsadlarni belgilaydilar.

Hozirgi vaqtda tashkilot faoliyatini koordinatsiyalash bo'yicha bosh kotibiyat Turkiyaning Istanbul shahrida joylashgan. Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo va kuzatuvchi davlatlarning aholisi taxminan 150 million kishini tashkil etadi, ular 4 million 200 ming kvadrat kilometrlik katta va muhim geosiyosiy hududda joylashgan². Tashkilotga a'zo davlatlarning jahon iqtisodiyotidagi o'rni ham juda salmoqli hisoblanadi.

Tashkilotning huquqiy asosini tashkil etuvchi 22 moddadan iborat “Naxchivan shartnomasi” mazmuniga nazar tashlansa, eng avvalo, xalqlar o'rtasidagi tarixiy rishtalar,

¹ <https://brightuzbekistan.uz>

² <https://www.turkicstates.org>

umumiy til, madaniyat va an’analardan kelib chiqib, har tomonlama hamkorlikka kirishish va bu munosabatlarni chuqurlashtirishga qaratilgani ko’rinib turadi. Mazkur hujjatda, shuningdek, tashkilotning vazifa va maqsadlari, tuzilmasi, hamkorlik turlari, tashkilot tarkibidagi kengash va qo’mitalar, budjet, imtiyozlar, xalqaro munosabatlar va nizolarni hal etish masalalari haqida ma’lumotlar keltirib o’tilgan. Tashkilotning maqsad va vazifalari Naxchivan shartnomasining 2-moddasida bayon qilingan bo’lib, jumladan quyidagilarni qamrab oladi:

- tomonlar o’rtasida o’zaro ishonch, do’stlik va yaxshi qo’shnihilik munosabatlarini mustahkamlash;
- mintaqada va uning tashqarisida tinchlikni ta’minlash va xavfsizlikni mustahkamlash;
- tashqi siyosat masalalari bo’yicha umumiy pozitsiyalarni qabul qilish;
- umumiy maqsadlarga taalluqli barcha sohalarda samarali mintaqaviy va ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish;
- a’zo davlatlar o’rtasida savdo va investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish;
- qonun ustuvorligini ta’minlash, samarali boshqaruv va inson huquqlarini himoya qilish masalalarini muhokama qilish;
- fan, texnika, ta’lim va madaniyat sohalarida o’zaro hamkorlikni kengaytirish;
- ommaviy axborot vositalari bilan o’zaro hamkorlikni va yanada intensiv muloqotni rivojlantirish;
- huquqiy masalalar bo’yicha axborot almashinuviga ko’maklashish³.

2026-yilga qadar, ya’ni doimiy faoliyat ko’rsatuvchi xalqaro tashkilot sifatida o’z faoliyatini boshlagunga qadar 20 marotabadan ortiq “Turkiy tilli davlatlar sammiti” bo’lib o’tdi. Ularda turkiy tilli davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega bo’lgan ko’plab masalalar muhokama qilinib, tegishli hujjatlar qabul qilingan. Xususan, 2008-yilda Istanbul shahrida Turkiy tilli mamlakatlar parlamentlar assambleyasi tashkil etildi. 2009-yil 3-oktyabrda Ozarbayjonning Naxichevan shahrida bo’lib o’tgan to’qqizinchi “Turkiy tilli davlatlar sammiti”da Turkiy tilli davlatlar hamkorlik Kengashini tuzish to’g’risidagi Naxichevan bitimi imzolandi. Shu tariqa “Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashi” xalqaro birlashmasi BMTda ro’yxatdan o’tgan xalqaro hukumatlararo tashkilot sifatida o’z faoliyatini boshladi.

2019-yil 15-oktyabrda Ozarbayjonning Boku shahrida “Kichik va o’rta korxonalarini qo’llab-quvvatlash” mavzusida sammit bo’lib o’tdi. Unda Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog’iston Respublikasining birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev – Elboshi, Qirg’iziston Respublikasi Prezidenti Sooronbay Jeyenbekov, Turkiya Respublikasi Prezidenti Rajab Tayyib Erdo’g’an, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban, Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi raisining o’rinbosari Purli Agamiradov qatnashdi. Sammitda O’zbekiston tashkilotga yangi a’zo sifatida ishtirok etdi⁴.

2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yettinchi ustuvor yo’nalish – “Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish” deb nomlangan bo’lib, unda bu sohadagi aniq maqsadlar belgilab olindi. Ularda mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli

³ <https://xabar.uz>

⁴ <https://daryo.uz>

subyekt sifatida rolini oshirish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatdan yuqori bosqichga olib chiqish, an’anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratilib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirishga alohida e’tibor berilgan⁵. Xususan, turkiy mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish Yangi O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim jihati hisoblanadi. Turkiy kengash bilan hamkorlikning faollashuvi yurtimiz uchun qo‘shni davlatlar bilan ham, mintaqadan tashqaridagi yangi hamkorlar bilan ham ko‘p tomonlama aloqalarni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu, o‘z navbatida, nafaqat o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga, balki turkiy tillar, jumladan, o‘zbek tilining xalqaro maqomini yuksaltirishga xizmat qiladi. Tashkilot ishida doimiy a‘zo sifatida ishtirok etish bizga xalqaro maydonda o‘z tashabbuslarimizni ilgari surish, shuningdek, mamlakatimizning turkiy-islomiy taraqqiyot markazlaridan biri sifatidagi jahondagi nufuzi va maqomini mustahkamlash uchun qo‘shimcha siyosiy-diplomatik resurslarni yaratadi.

2022-yil 11-noyabr kuni Samarqand shahrida Turkiy davlatlar tashkilotining navbatdagi sammiti bo‘lib o‘tdi. Samarqand sammiti doirasida siyosiy-iqtisodiy, transport, madaniyat va turizm kabi sohalarda hamkorlikni yanada jadallashtirish masalalari muhokamasi hamda xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashishildi. Tadbirning asosiy hujjati – bu a‘zo mamlakatlarning eng muhim mintaqaviy va global muammolar bo‘yicha mujassamlashgan pozitsiyalari o‘z ifodasini topgan Turkiy davlatlar tashkiloti Samarqand sammiti deklaratsiyasidir. Unda mintaqaviy barqarorlik, xavfsizlik va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash, transport aloqalarini mustahkamlash, shuningdek, madaniy muloqotni chuqurlashtirish bo‘yicha qo‘shma yondashuvlar belgilab berilgan.

Xulosa qilib aytganda, mazkur tashkilot doirasida azaliy qardoshlikni mustahkamlash barobarida global va mintaqaviy muammolar bo‘yicha siyosiy maslahatlashuvlarni kuchaytirish, iqtisodiy va texnikaviy hamkorlikni, ilm-fan, san‘at va madaniyat sohasida hamda turkiy tilli dunyoning moddiy, ma‘naviy madaniyatini asrash va yanada rivojlantirish borasida hamkorlikni yuqori saviyaga ko‘tarish doimiy e’tiborda bo‘lib qoladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida Farmoni.
2. <https://www.turkicstates.org>
3. <https://brightuzbekistan.uz>
4. <https://xabar.uz>
5. <https://xs.uz>
6. <https://daryo.uz>
7. <https://lex.uz>

⁵ <https://xs.uz>